



BOSQINCHILIK JINOYATINI TERGOV QILISHDA ISBOTLANISHI LOZIM BO'LGAN HOLATLAR

Raxmatullayev Muzaffar Talgatovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim mustaqil izlanuvchisi 100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68-uy

E.mail: muzaffarraxmatulayev@icloud.com

Ilmiy mutaxassisligi:

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

ORCID: 0009-0009-0266-5616

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17660217>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 20-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

bosqinchilik, kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash zarurati, sohada uchrayotgan muammolar, tergovchining harakatlari.

ABSTRACT

Bosqinchilik jinoyatini tergov qilishning samaradorligi, avvalo, mazkur jinoyatlarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash, shuningdek, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni har tomonlama, to'liq hamda xolisona o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir. Tergov jarayonida dalillarning haqqoniyligi, jinoyat sodir etish motivlari va sharoitlarining aniq belgilanishi tergovning natijaviyligini ta'minlaydi hamda adolatlari qaror qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Bosqinchilik jinoyatini tergov qilishda tergovchi jinoyat ishi bo'yicha barcha holatlarni aniqlashi kerak. Ulardan ayrimlari isbotlash predmetining elementlarini ifodalasa, boshqalari yordamchi (oraliq) funksiyalarni ifodalaydi.

Bosqinchilik jinoyatini tergov qilishda tergovchi ushbu jinoyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda isbotlashning predmeti va chegaralarini belgilab olishi zarur. Bu holat tergovchiga tergovni yo'nalishini to'g'ri tanlashga hamda tergov harakatlarini ketma-ketlikda maqsadli o'tkazishga yordam beradi.

Bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxsni ayblash va hukm qilish uchun O'zbekiston Respublikasi JPKning 82-moddasida belgilangan holatlar isbotlanishi lozim. Agarda bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa, JPKning 82-moddasida ko'rsatilgan holatlar bilan birgalikda 548-moddasida nazarda tutilgan holatlar ham isbotlanishi zarur. Shu bilan birga bosqinchilik aqli norosolik holatida bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u holda JPKning 566-moddasida ko'rsatilgan holatlar ham isbotlanishi lozim. Chunki, mazkur holatlardan kelib chiqib shaxsiga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasi hal etiladi.

E.A.Abzalovning fikricha, "isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni o'rganish, ish bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholash masalasida muhim ahamiyatga ega. Isbotlanishi lozim

bo'lgan barcha holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi dastlabki tergovning samaradorligini ta'minlaydi"¹.

Z.F.Inog'omjonova va G.Z.To'laganovalar "jinoiyat protsessida dalil va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar eng muhim masalalardan biri deb hisoblanib, jinoiyatni ochish, ayblanuvchini fosh etish, jazoni muqarrarligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan"².

B.B.Murodov "isbotlash chegarasi deganda, ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning asosligini tasdiqlash uchun dalillar, ularning manbalari hajmi, shuningdek, tergov tasmollari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish doirasini belgilab beruvchi faoliyatni tushunish lozim"³ deya fikr bildirgan.

E.M.Nishonov esa "isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar jinoyatlarni tergov qilish xususiy metodikasining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini, chunki isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar qilmishning nafaqat kriminalistik jihatlarini, balki jinoiy-huquqiy hamda jinoiyat-protsessual ahamiyatga ega bo'lgan barcha belgi va xususiyatlarini aniqlash va tekshirishni o'z ichiga olishini"⁴ ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, A.M.Kustov⁵ va A.G.Filippov⁶ kabi olimlar isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar har bir jinoiyat ishi bo'yicha alohida ishlab chiqilishi zarurligini ta'kidlab, quyidagi holatlar isbotlanishi lozimligini ko'rsatib o'tganlar:

bosqinchilik hujumi holati mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uy-joyga g'ayriqonuniy kirish orqali sodir etilganmi yoki ochiqlikda sodir etilganligi;

hujum qayerda amalga oshirilgan (manzil, ko'chaning nomi, daha, uy, podyezd, uy qavati, xonadon raqami va boshqa); bosqinchilik sodir etilgan vaqti (sana, yil, oy, kun yoki kunning vaqti);

bosqinchilik jinoyatini sodir etish usuli;

ushbu jinoyatni sodir etish natijasida yetkazilgan zararining miqdori, aynan qanday narsa va buyumlar talon-toroj qilingan, ushbu narsa va buyumlarning alohida belgilari;

bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs(lar)ning shaxsi;

bosqinchilik sodir etgan shaxslarning soni, ular har birining vazifasi nimadan iborat bo'lganligi;

bosqinchilik jinoyati sodir etilgan vaqtda qurol yoki kishining sog'lig'iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsa va buyumlar qo'llanilganmi, agar shunday bo'lsa, aynan qanday qurol yoki qurol sifatida foydalanilgan narsa va buyumlar qo'llanilgan, ushbu narsalarni kim, qachon va qanday usulda qo'llaganligi;

jinoiy guruhning jipsligi, barqarorligi va rahbarlikni kim amalga oshirganligi;

¹ Abzalov A.E. Jabrlanuvchining o'z ahvolidan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovning xususiyatlari: yu.f.n. ... diss.avtoref. – T., 2006. – B. 11.

² Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. "Jinoiyat-protsessual huquqi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2012. -433 bet.

³ Rajabova M.A. Jinoiyat-protsessual huquqi: To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri – T.: Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 490 b.

⁴ Nishonov E.M. Bezorilik jinoyatini tergov qilishni takomillashtirish. y.f.b.f.dok (PhD) dis. – T., 2024. – 60 b.

⁵ Волчецкая Т.С. Криминалистическая ситуалогия: автореф. дис....д-ра юрид. наук <http://www.dslib.net>
Кустов А.М. К вопросу о криминалистическоу характеру-стике преступлению и механизме преступления / А.М. Кустов // Информац. бюллетен

⁶ Филиппова А.Г. Криминалистика: Учебник / Под общ. ред. 4-е изд., перераб. и доп. М.: Высш. образование, 2009. С. 504.

guruh o'rtasida oldindan til biriktirish yoki vazifalarni taqsimlash bo'lganligi;
jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar, uning ijtimoiy holati va moddiy ahvoli;
jabrlanuvchiga tan jarohatlari yetkazilganmi, agar yetkazilgan bo'lsa, uning og'irlik darajasi qanday;

jinoyat sodir etish motivi, talon-toroj qilingan narsalarni yashirish yoki sotish usullari;
bosqinchilik sodir etishga undagan sabab va shart-sharoitlar.

A.M.Kustov va A.G.Filippovlar tomonidan ishlab chiqilgan bosqinchilik jinoyati bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarda JKning 164-moddasida nazarda tutilgan o'zganing mulkining miqdori, uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirish orqali sodir etilganligi va boshqa holatlar inobatga olinmagan. Shuning uchun ularni qaytadan ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Huquqni qo'llash amaliyotini chuqur tahlil qilgan holda mazkur turdagi jinoyat ishlari doirasida aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar hamda ularni isbotlashda o'tkazilishi zarur hisoblangan quyidagi tergov va protsessual harakatlar ro'yxatini ishlab chiqdik:

Jinoyat hodisasi (bosqinchilik jinoyatini sodir etish vaqti, joyi, usuli, bosqinchilik jinoyati va uning oqibati o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi, shuningdek, bosqinchilik jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan boshqa holatlar):

bosqinchilik jinoyati aynan qaysi vaqtda va qayerda sodir etilgan (*hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, kuzatuv kameralarini ko'zdan kechirish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati sodir etilgan vaqtda begona shaxslar mavjud bo'lganmi, agar mavjud bo'lgan bo'lsa, ular orasida voyaga yetmaganlar ham bo'lganligi (*gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati sodir etishga tayyorgarlik ko'rilganmi, tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa, qanday harakatlar amalga oshirilgan va kimlar tomonidan (*hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish yo'li bilan*);

shaxsning bosqinchilik jinoyati sodir etilishiga nimalar sabab bo'lgan (*gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, kuzatuv kameralarini ko'zdan kechirish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs hodisa joyiga qachon va qanday yetib kelgan va bosqinchilik jinoyatini sodir etganidan so'ng qaysi tomonga yashiringan (*hodisa joyini ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati sodir etgan shaxs sovuq qurol yoki kishining sog'lig'iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalardan foydalanganmi, agar foydalangan bo'lsa, uning turi, modeli, rangi, ko'rinishi, alohida belgilari va boshqalari qanday bo'lgan, ushbu predmet jinoyatga oldindan tayyorlanilganmi, uni yanada tajovuzli qilish yoki niqoblashni osonlashtirish maqsadida o'zgartirilganmi, bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs qurolni qanday olgan, u bilan qaysi vaqtdan buyon va qanday asoslarda foydalanib kelgan, hozirda uning turgan joyi (*hodisa sodir bo'lgan joyini va olingan narsa va buyumlarni ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, tegishli ekspertizalarni tayinlash, narsani tanib olish uchun ko'rsatish, olib qo'yish va tintuv o'tkazish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati qanday sodir etilgan, sovuq qurol yoki kishining sog'lig'iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan

qo'rqitib sodir etilganmi, agar shunday bo'lsa, qanday aniq harakatlar amalga oshirilgan, huquqbuzar qanday so'z va iboralarni ishlatgan, uning so'zlari tahdidlarni ifodalaganmi, bu jabrlanuvchi va boshqa shaxslar tomonidan real qabul qilinganligi (*hodisa sodir bo'lgan joyni va kuzatuv kameralarini ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

ayblanuvchi yoki boshqa shaxslar jinoyat izlarini yashirish choralarini ko'rganmi, agar shunday bo'lsa, qanday choralar ko'rilgan (*gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish yo'li bilan*);

jabrlanuvchi va ayblanuvchi bir-birini taniydimi, agar tanisa, ular o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lgan (*jabrlanuvchi va ayblanuvchini, shuningdek, ularni yaqin qarindoshlarini so'roq qilish, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish, agar shaxs qochib ketgan bo'lsa, fotosuratidan tanib olish uchun ko'rsatish yo'li bilan*);

Bosqinchilik jinoyatini sodir etish jarayoni kuzatuv kamerasiga yoki jabrlanuvchi va boshqa shaxslar tomonidan mobil telefon hamda boshqa qurilmalar orqali videoyozuvga olinganligi (*hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*). Chunki, bugungi kunda aksariyat jamoat joylariga kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni qariyb 32 million nafarni tashkil etgan⁷;

Jinoyat sodir etishda shaxsning aybi va shakli:

bosqinchilik jinoyatini sodir etish uchun yuzaga kelgan bevosita xohish (*gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish*);

bosqinchilik jinoyatining motivi (*gumon qilinuvchi va jabrlanuvchini so'roq qilish*);

bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxsning xulq-atvoriga ta'sir qilgan boshqa motivlar, ya'ni qasos, rashk va boshqa holatlar (*jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish*).

Ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar:

yoshi, tug'ilgan yili, oyi, kuni (*ayblanuvchini so'roq qilish, pasport ma'lumotlarni o'rganish, so'rovlar yuborish yo'li bilan*);

ijtimoiy mavqei, faoliyat turi, kasbi (*ayblanuvchi hamda uning tanishlarini so'roq qilish, so'rovlar yuborish yo'li bilan*);

shaxsning bosqinchilik sodir etish vaqtidagi holati, hushyor ongli ravishda harakat qilganmi, alkogol yoki giyohvandlik moddasi ta'sirida bo'lganmi, agar shunday bo'lsa, mastlik darajasi qanday bo'lgan (*gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, tibbiy muassasadan ma'lumot olish yo'li bilan*);

ayblanuvchining ish, o'qish va yashash joyidan olingan ma'lumotlar (*mas'ul shaxslarni so'roq qilish, tavsifnoma va ma'lumot olish yo'li bilan*);

voyaga yetmagan gumon qilinuvchining yashash sharoiti va tarbiyasi, uning aqliy rivojlanish darajasi, unga katta yoshdagi shaxslarning ta'siri bo'lganmi, voyaga yetmaganlar o'rtasida hisobga olinganmi, agar shunday bo'lsa, qachon va nima sababdan (*voyaga yetmaganning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni so'roq qilish, axborot tahlil markazlariga so'rovlar yuborish, guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyatini sodir etganlikda gumon qilingan chet el fuqarosining O'zbekiston hududida bo'lishi uchun qonuniy asoslari mavjudligi (*pasport ma'lumotlarini o'rganish va so'rovlar yuborish, mutaxassislarini so'roq qilish yo'li bilan*);

⁷ Elektron manba: (diyor24.uz) Kirilgan sana: 06.01.2025-yil

bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs ilgari sudlangan bo'lsa, u qayerda, qachon va qaysi harakatlari uchun yoki boshqa davlatning JKning qaysi moddasi bilan qaysi sud tomonidan sudlanganligi (*Axborot markazi bazasidan tekshirish, agar sudlangan bo'lsa, tegishli suddan hukm nusxasini olish yo'li bilan*);

Yetkazilgan zararning xususiyati va miqdori:

jabrlanuvchining pasport ma'lumotlari, (*jabrlanuvchini so'roq qilish, pasport va boshqa ma'lumotlarini tekshirish, hududiy IIB M va FRBga so'rovlar yuborish yo'li bilan*);

jabrlanuvchining sog'lig'iga etkazilgan shikastning og'irligi, bu bo'yicha tibbiy xulosa; talon-toroj qilingan mulkning miqdori va mulkning egasi (*sudga oid tibbiy yekspertiza tayinlash, jabrlanuvchini guvohlantirish, so'roq qilish, uni jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish, sudga oid baholash ekspertizasini tayinlash yo'li bilan*).

Qilmishning jinoiyli va jazodan ozod qiladigan hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar:

ijtimoiy xavfli qilmish aqldan ozgan shaxs tomonidan yoki jinoyat sodir etgandan keyin jazo tayinlash yoki uni ijro etishni istisno etuvchi ruhiy kasallikka chalingan shaxs tomonidan sodir etilganligi⁸ (*sud psixiatriya ekspertizasini tayinlash, tibbiy muassasaga so'rov yuborish, yaqin qarindoshlarini so'roq qilish*);

jinoiy guruh a'zolari tomonidan gumon qilinuvchini bosqinchilik jinoyatini sodir etishi uchun jismoniy yoki ruhiy majburlov⁹ga duchor bo'lganmi, agar shunday bo'lsa, bu majburlash qanday ifodalangan, uni kim va qancha vaqt davomida qo'llagan (*gumon qilinuvchi va guruh a'zolarini so'roq qilish, yuzlashtirish yo'li bilan*);

gumon qilinuvchining o'zi sodir etgan jinoyatga munosabati, u o'z qilmishidan pushaymonmi (JKning 55-moddasi birinchi qismi), jinoyatni fosh etish va tergov qilishga yordam berganmi, bosqinchilik jinoyati tufayli yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko'rganmi, jinoyat sodir etilganidan so'ng darhol jabrlanuvchiga tibbiy va boshqa yordam ko'rsatganmi (*gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

jinoiy javobgarlikka tortish muddati (JKning 64-moddasi) o'tib ketmaganmi (*gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

ayblanuvchi jinoyat sodir etilgan vaqtda voyaga yetganligi (*ayblanuvchini, uning qonuniy vakilini, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

ayblanuvchi hamkorlik to'g'risida sudgacha bo'lgan kelishuvni tuzadimi¹⁰ (*ayblanuvchini so'roq qilish yo'li bilan*);

gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), guvoh yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishga asoslar bor yoki yo'qligi¹¹ (*protsess ishtirokchilarini so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, bu nimada o'z aksini topganligi (*jinoiy guruh a'zolarini so'roq qilish, guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyati o'zganing ko'p yoki juda ko'p miqdordagi mulkini egallash orqali sodir etilganligi (*jabrlanuvchini, guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan*);

⁸ O'zbekiston Respublikasi JK 75-modda. <https://lex.uz>. Kirilgan sana: 10.02.2024-yil

⁹ O'zbekiston Respublikasi JKning 41¹ va 55-moddalari <https://lex.uz>. Kirilgan sana: 10.02.2024-yil

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi JPK 586¹-modda. <https://lex.uz/docs/111460>. Kirilgan sana: 10.02.2024-yil

¹¹ O'zbekiston Respublikasi JPK 12¹-bob. <https://lex.uz/docs/111460>. Kirilgan sana: 10.02.2024-yil

takroran sodir etilgan bo'lsa, uni takroran deb topish uchun javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmaganligi (*gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, axborot markazidan tekshirish yo'li bilan*);

xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, qaysi sud tomonidan xavfli retsivist deb topilganligi (*tegishli suddan hukm nusxasini olish yo'li bilan*).

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa:

guruh tarkibi va uning a'zolari soni, guruhning kriminalistik turi (vaziyatli, epizodik); oldindan kelishuv bo'lganmi, agarda kelishuv bo'lgan bo'lsa, qayerda, qachon va nima haqida bo'lgan; jinoyat sodir etishda guruh a'zolaridan har birining ishtiroki va ularning harakatlari; guruhning mavjud bo'lgan muddati; rahbarning mavjudligi (mavjud emasligi); guruh tarkibidagi katta yoki kichik yoshdagi a'zolarining mavjudligi; guruhning shakllanish sharoitlari, birgalikda yashash, o'qish, ishlash, harbiy xizmatda birga xizmat qilish, oldingi jinoiy va boshqa aloqalar (*gumon qilinuvchi va jinoiy guruh a'zolarini so'roq qilish, yuzlashtirish o'tkazish yo'li bilan*).

Bosqinchilik jinoyati bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan holatlarda har bir ishtirokchi qanday vazifalarni bajarganligi to'liq aniqlanishi lozim. Buning uchun tergovchi guruhning har bir ishtirokchisi, jabrlanuvchi va guvohlarning bergan ko'rsatuvlarni sinchkovlik bilan o'rganishi va jinoyat ishida mavjud boshqa dalillar bilan qiyoslash orqali to'g'ri baho berishi lozim. Biroq, huquqni qo'llash amaliyotida bu kabi holatlarga doim ham yetarlicha ye'tibor qaratilmayapti.

Uyushgan guruh tomonidan bosqinchilik jinoyati sodir etish:

guruhning tuzilishi va uning a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi; yetakchi yoki tashkilotchi kim; guruh ichidagi xatti-harakatlar normalari va guruh a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari; sodir etilgan jinoyatlar va jinoiy faoliyatda til biriktirishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirish tartibi; jinoiy faoliyat shakllari va usullarining doimiyliigi; uyushgan guruhga yangi a'zolar qanday tanlangan, jalb qilingan va kiritilganligi; guruh ishtirokchilarining guruhdan "chiqarilish" imkoniyati va mexanizmi (*gumon qilinuvchi va guruh a'zolarini so'roq qilish, yuzlashtirish o'tkazish yo'li bilan*).

Bosqinchilik jinoyatini sodir etishga sabab bo'lgan holatlar:

bosqinchilik sodir etilishiga yordam bergan holatlar, masalan, shaharning ko'chalaridagi chiroqlar o'z vaqtida yoqilmaganligi, jabrlanuvchi qimmatbaho buyumlarini ko'z-ko'z qilib taqib yurishi (*hodisa joyini ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, tegishli organga taqdimnoma kiritish yo'li bilan*);

bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs spirtli ichimliklarga qachon ruju qo'yganligi, ushbu shaxs bosqinchilik jinoyati sodir etishdan oldin spirtli ichimlikni qayerdan, kim bilan sotib olganligi va iste'mol qilganligi (*gumon qilinuvchini (ayblanuvchi), uning yaqin qarindoshlarini so'roq qilish yo'li bilan*);

bosqinchilik sodir etgan shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati qanday, uning xarakterida qonunlarni mensimaslik mavjudmi, huquqbuzar yashaydigan, ta'lim oladigan, ishlaydigan joyda huquqiy targ'ibot ishlari qanchalik darajada yo'lga qo'yilganligi (*gumon qilinuvchini (ayblanuvchi) va uning yaqin qarindoshlarini hamda mahalla fuqarolar yig'ini raisini so'roq qilish*);

ayblanuvchi tomonidan qonuniy ravishda o'zida bo'lgan qurolni saqlash, olib yurish

qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilganmi (*gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish, qurolni nazoratini amalga oshirish zimmasiga yuklatilgan shaxsni so'roq qilish, nazorat qilish hujjatlarini o'rganish, zaruratga qarab taqdimnoma kiritish yo'li bilan*);

ota-onalar, vasiylar o'zlarining voyaga yetmagan farzandlarini tarbiyalash, ularning tungi vaqtda uydan tashqarida bo'lishlarini cheklash majburiyatlarini bajarganligi, agarda u huquqbuzarlikni tungi soat 22:00dan keyin restoran, kafe, bar, klub, diskoteka, kinoteatr, kompyuter zallari, internet klublari yoki boshqa ko'ngil ochar (dam olish) joylarida sodir etgan bo'lsa, javobgarlik masalasini ko'rib chiqish¹² (*jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish qo'zg'atib, uni vakolatli organlarga yuborish haqida qaror qabul qilish yo'li bilan*).

Bosqinchilik jinoyati bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini aniqlashda JKning 164-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bilan bir qatorda, JKning 164-moddasi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan qo'shimcha kvalifikatsiya belgilari ham ko'rib chiqilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etish lozimki, bosqinchilik jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi bosqinchilik to'g'risidagi aniq jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni to'liq, har tomonlama va xolisona aniqlashda muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, yetarli amaliy tajribaga yega bo'lmagan subyekt tomonidan bosqinchilik bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov harakatlari amalga oshirilganda qo'l keladi.

Adabiyorlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. T-1994.
3. Abzalov A.E. Jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovning xususiyatlari: yu.f.n. ... diss.avtoref. – T., 2006. – B. 11.
4. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. "Jinoyat-protsessual huquqi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. –Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2012.-433 bet.
5. Rajabova M.A. Jinoyat-protsessual huquqi: To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri – T.: Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 490 b.
6. Nishonov E.M. Bezorilik jinoyatini tergov qilishni takomillashtirish. y.f.b.f.dok (PhD) dis. – T., 2024. – 60 b.
7. Volcheskaya T.S. Kriminalisticheskaya situologiya: avtoref. dis...d-ra yurid. nauk <http://www.dslib.net> Kustov A.M. K voprosu o kriminalisticheskoy xarakteri-stike prestupleniy i mexanizme prestupleniya / A.M. Kustov // Informas. byulleten
8. Filippova A.G. Kriminalistika: Uchebnik / Pod obщ. red. 4-ye izd., pererab. i dop. M.: Vyssh. obrazovanie, 2009. S. 504

¹² O'zbekiston Respublikasi MJtK 188²-modda. <https://lex.uz/docs/97664>. Kirilgan sana: 10.01.2025-yil